

METAFORA VA FAXRIYOR SHE'RIYATI

Fayzullayev Mirjalol Sheramat o'g'li

SamDU 2-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada metafora tushunchasi va uning Faxriyor she'riyatida qo'llanishi, shuningdek Faxriyor she'riyatining poetikasi haqida ma'lumot keltirilgan. Faxriyor she'rlari metaforasi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. *Metafora, she'riyat, Faxriyor she'riyati, poetika, obrazli fikrlash, ruhiyat, talqin va tahlil, metaforik o'xshatish*

Metafora tushunchasi qadim-qadim zamonlardan she'riyatda qo'llanilib kelayotgan obrazli fikrlashning bir namunasi hisoblanadi. Shoir o'z ijodida yangiyangi o'xshatishlar, badiiy tasvir vositalarini yaratishga harakat qiladi. Ana shu jarayonda metaforaning chiroyli namunalari yaratiladi. Bu esa har bir ijodkordan katta mahoratni talab qiladigan jarayondir.

Metafora tushunchasini, uning xususiyatini dastlab yunon faylasufi Arastu o'zining "Poetika" asarida tushuntirib o'tadi: "Ko'chma so'z (metafora)- narsaga xos bo'lmagan, jinsdan turga yoki turdan jinsga, yoxud turdan turga ko'chirilgan, yoinki o'xshatilgan so'zdir".¹ Qadim zamon ijodkorlari ham metaforani tushunib, anglab yetishgan va o'z ijodida qo'llay bilishgan. Tarixiy taxayyul va ijodkor idroki o'sha paytda metaforik o'xshatmalar zamon ruhiyatini aks ettirib turgan,

She'riyatda metafora qo'llanishi ijodkor poetikasini, she'r g'oyasini ochib beradigan, u yoki bu ma'noda tushuntirib beradigan badiiy ko'rinishdir. Shuning uchun ham metafora qo'llash ko'proq she'riyatda yanada jozibador, salmoqdor ko'rinadi.

Metafora badiiyatdan ilmiy o'lchamlarda tekshirila boshlandi. Natijada metafora tufayli yangi jumboq, maqol va tashbehlarning paydo bo'lishiga asos vazifani bajarishi ayon bo'ldi. Metafora turli tillarda turlicha farqlanishini kuzatishimiz mumkin. Bu ham xalqlarning madaniyati, san'ati, an'anasi bilan bog'liq hodisa sanaladi. Masalan, ruslar orasida "eshak" ahmoqlik va qaysarlik ramziy kabi ramziy ma'noga ega bo'lsa, ispanlarda esa og'ir ish ramziy ma'nosini bildiradi. Shuning uchun ham metaforani

¹ Arastu- Poetika

aniqlashda, baholashda chet el madaniyatini, undagi o'ziga xos ramziy tushunchalarni bilgan holda tarjima qilish kerak bo'ladi.

Bugungi kunda o'z she'rlarida metaforaning ajoyib namunlarini yaratib kelayotgan ijodkor bu- Faxriyordir. Faxriyor she'riyati modernistik yo'nalishda tadqiq va tahlil qilinadigan she'riyatdir. Uni tushunish uchun modernizmni tushunish, so'ng Faxriyor she'riyatini tahlil qilish kerak.

Faxriyor she'riyati bittada o'qiladigan, birdan yod olinadigan she'riyat emas. Unda muayyan bir sir, jumboq yashiringan. Siz o'qir ekansiz, o'sha jumboqni qidirishga tushasiz. Bu jumboqlar esa metaforik o'xshatishlar ichiga yashiringan bo'ladi. O'quvchi esa o'z haqiqatini o'zicha tushunadi. Shoir anglatmoqchi bo'lgan haqiqat esa boshqacha fikr bo'lishi mumkin.

Inson ko'ngli tushunishga, tushunilishga muhtojdir. Har bir inson esa o'zini ichki olamini yashirishga harakat qiladi. Biz esa uni anglashga, topishga harakat qilamiz. Faxriyor o'z olamini she'rlarida yashirgan. Bu olam esa metafora ortidadir. Bizning maqsadimiz Faxriyor she'rlarida metaforik olami kashf etishdir. Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldosh Faxriyor she'rlari haqida shunday deydi: "Faxriyorning she'rlarini o'qish ham, uqish ham, ta'sirlanish ham oson emas. Lekin uning bitganlari milliy she'riyatimiz taraqqiyotining shunday darajasidirki, uni bilmaslik estetik va ma'naviy qiyofaning kemptikligiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham bugungi oydin Faxriyor asarlarini o'qishi, o'rganishi, tahlil qilishga ehtiyoj sezishi kerak"¹

Faxriyor she'riyati bugungi o'ychil kitobxon uchun qimmatli topilmadir. Uning har bir misrasida ifodalaniyotgan fikrni, g'oyani topish kitobxondan izlanishni talab qiladi. Jumladan bir she'rida:

*Yechilmagan krossvord kabi
kataklari bo'm-bo'sh qafasning
Bo'm-bo'sh qafas qafaslar ichra
chiroylisi, eng go'zali eng...*

Xo'sh, o'sha eng-eng nima? Ozodlikmi, erkinlikmi, to'kinlikmi? Kitobxon Faxriyor she'rlaridan o'sha "eng"ni qidiradi. She'rlarni o'qish jarayonida lazzatlanish ham, og'riq ham, hissiyot ham shu mavhum misralarda yashiringan bo'ladi.

Faxriyor she'rlarini o'qir ekansiz, olis qum bahranlarida tentirab yurgan oshiq nolasini eshitganday bo'lasiz. Qandaydir yig'i tovushiga o'xshagan nola. Unda dard bor, hasrat bor, ayriliq bor. Balki, shuning uchun ham to'planning nomi ham "Ayolg'u"dir. To'plamda har bir she'rda o'ziga xos ma'no yuki bor. She'rlarni sinchiklab o'qir ekansiz, undagi metafora poetikasining go'zal namunalariga duch kelasiz. Quyidagi bir she'rida:

¹ Qozoqboy Yo'ldosh. Noziklashuv jarayoni. Shoir bilan ijodiy uchrashuv. 27.07.18

*Muhabbat ko'ksingga qamalgan havo,
chiqib ketolmaydi kabutar bo'lib.
Mening vujudimda yamalgan yurak
rangli hasratlarga yotadi to'lib.* (Ayolg'u. 199-bet)

Bu misralarda yamalgan yurak, qamalgan havo va rangli hasratlarga birikmalarida metafora na'munasi qo'llanilgan. Muhabbat inson hayotini tartibga soluvchi, yashashga undovchi kuch. Muhabbat insonning vujudida havodek zarur. U yo'q bo'lsa yashash qiyin, yashash azobli. Shuning uchun ham yurak dardlardan ezilib-yamalgan. Unda faqat rangli hasratlarga qolgan. Rangli hasratlar qayerdan paydo bo'ldi? Muhabbat barchasiga javobdir. Shunday iz qoldirishga muhabbat sababchi. Faxriyor she'riyatida bunday metaforik topilmalar har misrada uchraydi.

Faxriyor she'riyatini tahlilga tortar ekanmiz, misradan misraga o'tishda, banddan bandga ko'chishda kitobxon o'yga cho'madi. Yo bittada o'qib tugatish kerak, yo har misrada taxayyulga botish kerak. She'riy misralardagi qofiyasizlik ham o'quvchiga xalaqit bermaydi.

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda mana shunday shakliy o'zgarishlar qilayotgan, o'zining eng navator metaforalari bilan she'riyatimizga yangi qon va yangi nafas olib kirgan ijodkor Faxriyordir. Faxriyor she'riyatini til bilan o'qib, dil bilan anglab, aql bilan tafakkur qilish kerak. Unda yashiringan tilsimotni hamma ham anglayvermaydi. Buning uchun kitobxondan olimlik va zukkolik ham talab qilinadi. Kitobxon tushungan, anglab yetgan haqiqat boshqa kitobxonga boshqacha ta'sir etishi tayin. O'sha sirlilik Faxriyor she'riyatining tub mohiyati bo'lsa kerak. Uning "Dardning shakli"[2], "Ayolg'u"[3], "Izlam"[4] kabi she'riy to'plamlarida metaforaning yangi namunasini va poetikasini ko'rib chiqamiz.

Jumladan, Faxriyorning "Ruhning ko'lankasi" she'ri boshdan oxirigacha metafora ustida qurilgan. Alohida-alohida g'oya tashiydigan misralarda o'zgacha ohang, kutilmagan o'xshatishlar qo'llanilgan. Birinchi misra:

Eshitilar gullarning bo'yi.

Aslida gullar gapirmaydi. Shoirni esa yashnab turgan, o'zidan muattar hid taratayorgan gullar o'ziga chorlamoqda. Bu "bo'y" gullarning ovozi. Faqat ijod ahli eshitishi mumkin bo'lgan ovoz. Keying misra boshqacharoq:

Yurak po'st tashlaydi.

Hayot shunday murakkabki, har qanday insonni toblaydi, mashaqqatga o'rgatadi. Boshga tushadigan, ko'z ko'radigan barcha qiyinchilik ham, xursandchilik ham, avvalo, yurakka ta'sir qiladi. Insonda o'zgarish albatta, birinchi yurakdan boshlanadi. Shuning uchun ham hadisda shunday deyilgan, Insonda bir a'zo bor; u tuzalsa barcha a'zo tuzaladi, buzilsa barcha a'zo buziladi. Bu- qalbdir. Uni esa asrash kerak.

Yulduzlarning zangi to‘kilar.

Bu misra ham yuqoridagi misraning mantiqiy davomi. Zang metallda bo‘ladi, metalldan to‘kiladi. Yulduzdan ham to‘kilishi mumkinmi? Aslida yo‘q. Bunda boshqa bir tushuncha bor. Odatda qandaydir dard chekayotgan, yuragini qiynayotgan o‘tli qalbgina faqat yolg‘izlik istaydi. Yolg‘izlik tunda yashiringan. Osmonga tikilgan ko‘zlar o‘tmishni yo kelajakni o‘ylaydi. Bu o‘ylar qalabda zanglab yotgan iztiroblarni to‘kadi.

Anorlar dard kabi yorilar.

Bu o‘xshatish ham ajoyib, yangi metaforadir. Anor kuzda pishadi. Kuz esa yig‘im-terim fasli. Anor turaversa, uning po‘stidan suvi ketaveradi. Ichida donachalar to‘lishib, pishib kelaveradi. Natijada qaqraqgan po‘st bir kun taranglashib yorilib ketadi. Insonda ham dard shunday yig‘ilib, to‘planib kelaveradi va bir kuni u ham yoriladi.

Faxriyor she‘riyatida tun bilan bog‘liq misralar ko‘plab uchraydi. Bu misralarda metafora poetik ohangni yanada jonlantirgan.

Tun-zindon.

Nafaqat, ong, zindon-da o‘sar.

Unga sultonni joylash mumkin suyagi bilan. Yoki

Bu kechani armonlar ichar.

Lirik asar xotimasi odatda asosiy poetik ma‘noni beribgina qolmay balki, misralardagi asosiy yukni o‘zida mujassamlashtiradi. Har bir ma‘no ottenkalari ana shu poetik g‘oyaga birlashadi. Fikr oqimi kitobxonni oldin tarixga keyin hozirgi zamonga yetaklaydi. Tunning zindonga o‘xshatilishi odatiy hol deb qaraydigan bo‘lsak (tunda inson ruhiy holatidagi zo‘riqishlar hisobiga), inson ongi ana shu qorong‘ulikdan yorug‘likka talpinadigan, erkin va ozod bo‘lishni xohlaydigan inson qiyofasidir. Unga sultonni suyagi bilan joylanishi butun olamni unga jo bo‘lishini anglatadi (inson ongi cheksiz). Faqat unda to‘la armon. Har bir insonning o‘z olamida armoni bor. Bu hayotda to‘la to‘kis insonning o‘zi yo‘q.

Quyidagi misralarga ham metaforaga yo‘g‘rilgan hayot ziddiyatlari aks etadi. Badaniga botgan tushning siniqlaridan

u daf‘atan uyg‘onib ketar

yarim kechasi.

Faylasuflardan biri ta‘kidlaganidek inson tug‘iladi, azob chekadi va o‘ladi.

Yuqoridagi she‘r bandlarida badaniga botgan tushning siniqlari inson xotira ongi bilan bog‘liq jarayondir. Hayotdagi turli qarama-qarshiliklar, xiyonatlar, ziddiyatlar inson umri davomida uchraydigan haqiqatlardir. Yarim kechasi lirik qahramonning ong osti xotirasida jonlangan ana o‘sha ziddiyatli nuqtalar unga tinchlik

bermaydi. Bosinqirash, gallitunatsiya hodisalari natijasida lirik qahramon uygʻonib ketadi. Buni shoir chiroyli metaforik oʻram bilan oʻquvchiga yetkazadi.

Shuningdir quyidagi misralarda:

**Sheʼr toʻqiyman oʻrgimchak kabi
muhabbatning tolalaridan...**

Yoki:

Goʻrlar qisir-tugʻishdan qolgan.

Shoir bu misralarda ham metaforadan unumli foydalangan. Sheʼr shunday ilohiy tuygʻuki, unda soʻz qoʻllash mahorati bevosita ohangga qoʻshilib kelaveradi. Shoir oʻrgimchakdek sheʼr toʻqiydi. Bu tolalar ham juda mustahkam. U muhabbatdan toʻqiladi. “Goʻrlar qisir- tugʻishdan qolgan” kabi oʻxshatishda ham oʻzgacha maʼno yashirin. Hech goʻr ham qisir boʻladimi? Shoir bu bilan nima demoqchi? Gap shundagi goʻrda tugʻilgan, goʻrdan chiqqan bitta qahramon bor. U ham boʻlsa oʻzbek dostonlari qahramoni- Goʻrogʻlidir. Uning botirligi, jasurligini har bir oʻzbek farzandi bilsa kerak. Shoir yurtga shunday farzandlar kerak demoqchi.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, Faxriyor sheʼriyatida doimiy qoʻllanilib kelayotgan bu badiiy unsur-metaforadir. Bu sheʼrning badiiy jozibasini, ifoda koʻlamini yanada sermaʼno qilishni taʼminlagan. Biz hozir birgina “Ruhning koʻlankasi” sheʼri misolida tahlil qilishga harakat qildik. Keyinchalik metafora poetikasi haqida Faxriyorning boshqa sheʼrlarida ham ilmiy tadqiqotlar olib boramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. *Oʻzbek tilining izohli lugʻati.*
2. Faxriёр. “Аёлгу”. Т.: “Шарқ”, 2000. – 262 б.
3. Faxriёр. “Ислам”. Т.; “Академнашр”. 2017. – 224 б.
4. Faxriёр. “Геометрик баҳор”. Т.: “Маънавият”, 2004. – 192 б.
5. Faxriёр. “Дарднинг шакли”. Т.: “Ёзувчи”, 1997. -41 б.
6. Qozoqboy Yoʻldosh. *Noziklashuv jarayoni. Shoir bilan ijodiy uchrashuv.* “Yoshlik”, 2014 yil 10-son
7. Арасту. *Поэтика. Ахлоки кабир. Риторика.* -Т.: «Янги аср авлоди», 2011. 352 б.